



QALQANSIMON BEZ YALLIG'LANISHIDA UTT AHAMIYATI

Nishanova Yulduz Xatamovna

Eshnazarova Muslima Narzulla qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19082169>

Dolzarbli: Qalqonsimon bez yallig'lanish kasalliklari (tireoiditlar) infeksiya, autoimmun, granulomatoz, dori vositalari va nurlanish ta'siriga bog'liq (medikamentoz va radiatsion), hamda tug'ruqdan keyingi (postpartum) tireoidit uchraydi [1,2]. Ular qalqonsimon bez patologiyalarining muhim qismini tashkil etib, ayniqsa ayollarda erkaklarga nisbatan 5–8 baravar ko'proq kuzatiladi va ko'pincha 20–50 yosh oralig'ida aniqlanadi [2,3]. Autoimmun tireoidit umumiy aholi orasida taxminan 3–5% hollarda uchrashi qayd etiladi [1,3]. Qalqonsimon bez patologiyalarini aniqlashda ultratovush tekshiruvi bez hajmi, exogenligi va diffuz o'zgarishlarni baholash imkonini beruvchi eng informativ, xavfsiz va keng qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi [2,4].

Maqsad: Qalqonsimon bez yallig'lanish bilan kechadigan patologiyalarda multiparametrik UTT usulini baholash.

Material va usullar: Tadqiqot 2024-2025-yillarda qalqonsimon bez yallig'lanishi tashxisi qo'yilgan 69 nafar bemordan (18–55 yosh) 64 nafari ayol, 5 nafari erkak ishtirok etdi va barcha bemorlarda ultratovush tekshiruvi (UTT) hamda sintigrafiya o'tkazildi. UTT yordamida bezning hajmi, tuzilmasi, exogenligi va diffuz yoki o'choqli yallig'lanish o'zgarishlari baholandi, sintigrafiya esa bezning funksional faolligi va gormon ishlab chiqarish darajasini aniqlash imkonini berdi. Usullar taqqoslanganda, UTT struktur o'zgarishlarni erta aniqlashi, nurlanishsiz, xavfsiz va takror qo'llash mumkinligi bilan afzallik ko'rsatdi, sintigrafiya esa funksional holatni baholashda qo'shimcha diagnostik usul sifatida ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

Natija: UTT natijalariga ko'ra bemorlarning 46 nafarida diffuz yallig'lanish (66,7%), 17 nafarida o'choqli o'zgarish (24,6%), 6 nafarida bez hajmi kattalashuvi va exogenlik pasayishi (8,7%) aniqlangan. Sintigrafiya natijalarida 41 nafarida gipofunksiyaga mos pasaygan to'planish (59,4%), 15 nafarida giperfunksiya belgilari (21,7%), 13 nafarida normal ko'rsatkich (18,8%) qayd etildi. Gormonal tekshiruvlarda 39 nafarida TTG oshgan va T4 hamda T3 pasaygan (56,5%), 16 nafarida TTG pasaygan va T4 hamda T3 oshgan (23,2%), 14 nafarida ko'rsatkichlar norma chegarasida bo'lgan (20,3%).





Xulosa: Qalqonsimon bez yallig'lanishida UTT struktur o'zgarishlarni aniqlashda yuqori samarali, xavfsiz va birlamchi diagnostika usul ekanligi aniqlandi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojimaxamatova Maxliyo Mirzag'ani kizi. Hashimoto's thyroiditis: diagnosis and treatment as an autoimmune disease. International Journal of Medical Sciences. Available at:

<https://inlibrary.uz/index.php/ijms/article/view/132486>

2. Farmonova M., Jumayeva M., Taganqilichov S., Mirzaev S., Davranova A. Autoimmune thyroiditis in the conditions of iodine deficiency region. Science and Education. Available at:

<https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5319>

3. Ismailov S., Abduraxmanova R., Urmanova Y. Autoimmune thyroiditis and characteristics of disorders of reproductive function in women of fertile age. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. Available at:

<https://theamericanjournals.com/index.php/tajmspr/article/view/458>

4. Djurayeva R. Autoimmune Thyroiditis. Modern Science and Research. Available at: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/66507>

